

«QO'RQOQ BUG'U» ERTAGI ASOSIDA SO'ZDAN SO'ZNING FARQ DOIRASINI OCHIB BERISH

Qarshiyeva Muborak Arslonbek qizi
SamDu talabasi
Qarshiyevamuborak43@gmail.com
 +998996839732

Annotatsiya: Matn tuzishda o'quvchilar so'zni o'z o'rnida qo'llay olishi, so'zni so'zdan farqlab ishlatishi uchun ushbu maqolada ko'nikmalar berilgan. Biror predmetning holat-xususiyati, voqea-hodisaning qay tarzda yuz berganini ifodalash so'zlarni qay o'rnida ishlatish bilan bog'liqdir. O'quvchilar matn tuzishda so'z birikmalaridan, iboralardan foydalanishini ta'minlash lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: So'z, ibora, badiiy bo'yoqdorlik, ma'no kuchi doirasi.

Abstract: this article provides skills for students to be able to use words in their place, to distinguish between words when composing a text. The situational feature of an object is related to the place where words are used to express how the events happened. It is shown that it is necessary to ensure that students use word combinations and phrases when composing a text.

Key words: word, phrase, artistic coloring, range of meaning.

Аннотация: данная статья дает навыки учащимся уметь использовать слова на своем месте, различать слова при составлении текста. Ситуационная особенность объекта связана с местом, где слова используются для выражения того, как произошли события. Показано, что необходимо следить за тем, чтобы учащиеся при составлении текста использовали словосочетания из словосочетаний.

Ключевые слова: слово, словосочетание, художественная окраска, смысловой диапазон.



Kichik maktab yoshidan boshlab o'quvchilarga so'zning kuch ta'siri kengayib oshib boraveradi. Ertak, hikoya, rivoyatlar eshitayotganda bolalarda hayratlanish, qo'rqish, xursand bo'lish, nafratlanish kabi emotsialar hosil bo'ladi. Xo'sh, bularning hosil bo'lishi nima orqali yuz beradi? Idrok qilish eshitish retseptori orqali ro'y bersa, uning ta'sir kuchi so'z bilan bog'liqdir. So'zlovchi so'zdan so'zning farqini ajrata olib, so'zlarga badiiy bo'yoqdorlik bera olsa, bu so'z shunchalar bolalarning ichki kechinmalarini bezay oladi.

Maktabgacha davrda bolalar biror voqea-hodisani aytayotganda oddiy so'z birikmalaridan foydalanadi. Maktab davriga kelib esa, biror predmetni ifodalashda uning belgisi, biror harakatni esa qanday bajarilganligiga ko'ra ifoda etadi. Ya'ni so'zni ishlata olish ko'nikmasi shakllana boradi. Bu ko'nikma va bilimlarni shakllantirishda, avvalo, o'quvchilarga so'zlayotganda gapni to'liq, deyarli barcha bo'laklar qatnashgan tarzda so'zlash kerak. Agar pedagog faqat ega va kesimdan iborat birikmalar ishlatsa, nutqda soddaluk, g'alizlik yuzaga keladi. Ta'sir doirasini ham pasaytirib yuboradi.

«Qo'rqqoq bug'u» ertagining bolalar ma'naviy dunyosiga ta'sir ko'rsata olishi uchun uni tashkil etgan gaolardagi har bir so'zning ishlatilish o'rniga e'tibor beramiz. Bu so'zlar o'rinli qo'llanilganligi uchun ertakning ta'sir ko'lamini ham keng. Quyidagi holatlarga e'tibor bersak:

...ba'zi bug'ular qo'rquvdan qaltirab, hushidan ketib qolibdi.

Ushbu jumlada bug'ular to'dasining hayratlanib qo'rqganligi ma'noni kuchaytirish orqali ifodalanayapdi. Yuqorida keltirilgan jumlaning yana quyidagicha badiiy bo'yoqdorlik bilan ifodalash mumkin:

1) Ko'rgan barcha bug'ular dag'-dag' qaltirab, o'zidan keta yozdi.

2) Ba'zi bug'ularning yuragi yorila yozdi.

3) Ba'zi bug'ularning yurak urushi ham eshitilib turardi ...kabi holatlardan ham qayta hikoya qilishda foydalanish mumkin.

Yuqoridagi barcha jumlalarda bug'ularning qo'rqib ketganligini ifodalash asosiy maqsad hisoblanadi.

Yana bir so'z birikmasining ifodalanishini ko'ramiz: *cho'g'dek yonib turgan ko'z*. Bo'rining ko'zini tasvirlashda ushbu so'z birikmasi qo'llanilgan. «Ko'z» ni yana qanday belgilar orqali tasvirlash, ma'noni kuchaytiradi yoki ma'nosi susayadi.

*Ko'zidan olov chaqnaydi, ko'zi yonib turadi, qorachig'ida o't yonadi, o'z domiga tortadigan ko'z, ko'ziga qon to'lgan...*kabi birikmalarni qo'llash esa turli ma'nolarni beradi.

Endi bo'rilar meni ko'rishi bilan qo'rquvdan orqalariga qaramay qochishadi- Endi bo'rilar meni ko'rishi bilan qo'rquvdan qochishadi.

Quyidagi jumlar deyarli bir xil ma'noni aks ettirgan. Biroq birinchi jumlada ma'no o'ta kuchli, ya'ni bo'rilar qochib, aslo qaytishmasligini ko'rsatyapdi. Ikkinchi jumlada esa, bo'rilar faqatgina qochishini ko'rsatyapdi. «Orqasiga qaramay qochdi» birikmasi ma'noni kuchaytirish vazifasini o'tagan.

O'quvchilar so'z boyliklarini oshirib, so'z larning ma'nolarini farqlay olib matn, yoki gapda qo'llay olsa, ular o'z nutqida ham shunday qiladi. Bu orqali o'quvchining nutqi ravon, ta'sirli va diqqatni torta olish xususiyatlariga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva.Q, Shodiyev.F, Hazratqulov.M. Boshlang'ich ta'limda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. SamDU.2019.350 b.
1. Husanboyeva.Q, Hazratqulov.M. Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligiga o'rgatish metodikasi. Darslik. -Toshkent. Innovatsion-ziyo, 2022.252 bet
2. Husanboyeva.Q, Hazratqulov.M. Sinfda o'qish metodikasi. O'quv qo'llanma. SamDU. 2020. 156 b.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 1-sinf uchun.I.Azimova [va boshq]. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.-104 b.
4. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism. Darslik. 3-sinf uchun.K.Mavlonova [va boshq]. Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021.-120 b.